Registered in Germany **Europa Revue Journal**
ISSN: 1862-6564 **Vol. 6 No. 6 (2026) Published June 25, 2026**

Linguistic Ability and Linguistic Activity

Lola Bebutovna Avliyoqulova

Lecturer, Bukhara State University

Abstract. This article explores the essence and significance of the concepts of linguistic ability and linguistic activity. Linguistic ability refers to an individual's knowledge of language units, as well as the readiness to understand and use them, whereas linguistic activity represents the practical manifestation of this knowledge and these skills in the process of speech. The article also analyzes the relationship between language and speech, the role of linguistic ability in the communicative process, and its importance in the formation of speech activity. The topic serves as an important theoretical foundation for the study of linguistics and speech culture.

Keywords

pure linguistic competence, human psychological communication, innate linguistic ability, potential of language knowledge, nominative function, expressive function.

Lisoniy qobiliyat va lisoniy faoliyat

Buxoro davlat univeristeti o‘qituvchisi

Lola Bebutovna Avliyoqulova

Annotatsiya. Mazkur maqolada lisoniy qobiliyat va lisoniy faoliyat tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritiladi. Lisoniy qobiliyat insonning til birliklarini bilishi, ularni anglash va qo‘llashga tayyorligi bilan bog‘liq bo‘lsa, lisoniy faoliyat ushbu bilim va ko‘nikmalarning nutq jarayonida amalda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Shuningdek, til va nutqning o‘zaro munosabati, kommunikativ jarayonda lisoniy qobiliyatning o‘rni hamda uning nutq faoliyatini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mavzu tilshunoslik va nutq madaniyatini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: *tug‘ma lisoniy qobiliyat, sof lisoniy imkoniyat, insoniy-ruhiy kommunikatsiya, til bilimining potensiali, atash (nominativ) vazifasi, ifodalash (ekspressiv) vazifasi.*

Til – sof lisoniy imkoniyat va qobiliyat. Til tafakkurni shakllantirishga, xotirada qat’iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat

beruvchi muhim [birlamchi] insoniy-ruhiy kommunikatsiya vositasi. Tilning bosh vazifasi o‘zaro ichki ziddiyat atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarining dialektik birligidan iborat[1]. Til milliy birlikni ta’minlash, ommaviy savodxonlikni oshirish va ilm-fanni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jamiyatda shaxslarning yashash faoliyatlari kommunikatsiya asosiga quriladi. Kommunikatsiya davomida muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo‘lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxs esa lisoniy shaxsdir[2].

Lisoniy imkoniyat – inson tafakkuri va lisoniy tizimida mavjud bo‘lgan muayyan ma’noning nutqda ma’lum ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishidir. Nutqda hech bir narsa yaratilmaydi, balki lisoniy birlikdagi imkoniyat yuzaga chiqariladi, xolos. Shuning uchun tilshunoslik oldida lisoniy birlik voqelanishidagi nutqiy alohidaliklarni umumiy lisoniy ma’noga birlashtirish vazifasi turadi[3]. Bugungi kun tilshunosligida lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishga, til birliklarining nutqda qo‘llanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Lisoniy qobiliyat tushunchasi N.Xomskiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. N.Xomskiy lisoniy qobiliyatni muayyan tilda so‘zlashish qobiliyatini tashkil qiluvchi sifatida izohlagan[4]. Ma’lumki, kishi tovushlar birikuvi, so‘zlar bog‘lanishi, umuman, tildagi so‘zlar tizimining qo‘llanishini onasidan, tevarak-atrofdagi yaqinlardan eshitib o‘z ona tilini o‘zlashtiradi (ayni holat tilshunos yoki tilni o‘rganuvchi har qanday kishida ham kuzatiladi). Bunday tizimdan foydalanish natijasida inson ona tilidagi cheksiz so‘z turkumlari, jumlalar va matnlarni hosil qilish qobiliyatini shakllantirib boradi. Shunga ko‘ra lisoniy qobiliyatni so‘zlovchi va tinglovchi til bilimining potensiali (salohiyati) deb izohlash mumkin. N.Xomskiy “Lisoniy qobiliyat birlamchi bo‘lib, u lisoniy faollikni belgilaydi”, – deb hisobladi. Transformatsion grammatika tarafdorlari ham asosiy urg‘uni lisoniy qobiliyatga qaratishadi.

Inson hayot faoliyati davomida o‘sib, ulg‘ayib, rivojlanib boradi. Bu jarayonda o‘qib-o‘rganadi, bilim oladi, qiziqishlarini rivojlantiradi, muayyan kasb egasiga aylanadi.

[1] Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Ta’lim taraqqiyoti, 1999. – B.6-7.
[2] http://library.navoiy-uni.uz
[3] Vohidova N. O‘zbek substansial tilshunosligi. – Toshkent, 2013. – B. 26-27.
[4] Chomsky N. Syntactic Structures. – Den Haag,1957.

Malaka va ko‘nikmalar orttirib, o‘zining salohiyati hamda iqtidorini oshirib boradi. Ya’ni, u faol hayot tarzida bo‘lar ekan, uning lisoniy qobiliyati ham rivojlanib, bevosita nutqida namoyon bo‘lib boradi. Fikrimizni obrazli qilib izohlasak, lisoniy qobiliyatning yuzaga chiqishini bir **kitob** misolida ko‘ramiz: yoshi, millati, jinsi, milliy-madaniy qadryatlari, kasbi, qiziqishlari, mashg‘ulotlari (va boshqalar) **sahifa** vazifani bajaradi. Agar “kitob”da ma’lum “sahifa” mavjud bo‘lmasa, demak, bu “mavzu” kitob qamrab olgan mavzular doirasiga kirmaydi va biz uni boshqa “kitob’dan qidiramiz. Masalan, 5 yo 6 yoshli bolaning lisoni uning tafakkurida mavjud bo‘lgan narsa va hodisalarnigina ifodalaydi, xolos. Buni quyidagi misol tariqasida o‘rganamiz. "Bola tilidan" nomli teleko‘rsatuv jarayonida berilgan savolga 5 yoshdagi qizchaning javobiga diqqatingizni qarating:

–Xo‘sh, ismingiz nima?

–Jasmina.

–Jasmina, katta bo‘lsangiz kim bo‘lasiz?

*–**Kelin** bo‘laman.*

–Jasmina, samolyot qanday uchadi?

*–**Shuuuuuuv** qilib uchadi.*

–Uchib qayerga boradi?

*–**Mehmonga** boradi-da.*

Ko‘rib turganingizdek, qizaloq savollarga o‘z tafakkuri va bilimidan kelib chiqqan holda javob berdi. Agar bu savol o‘smir yoshdagi bolalarga berilsa, ularning nutqlarida aks etadigan javoblar 5 yoshli bolalarnikidan farqlanadi, albatta. Bunda asosiy farq bolalarning javobida emas, balki shu javobning hosil bo‘lishi uchun asos bo‘lgan.

Lisoniy qobiliyatni amalga oshirish atrofdagi muayyan til egalari bilan muloqot qilish jarayonida yuz beradi. Xomskiyning e’tiroficha, lisoniy qobiliyatning tug‘ma lisoniy qobiliyatni yaqqol ko‘rsatib turadigan eng muhim jihatlardan biri bu shaxsning kasbi va qiziqishlari bilan bog‘liqdir. Aslida, barchamizning lisonimizda imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan doim ham faol foydalanmaymiz. Ayniqsa, kasb va sohaga oid terminlarning hammasi bilan tanish bo‘lishning imkoni kam. Quyida ikki soha mutaxassisining nutqidan parcha keltirish orqali fikrimizni oydinlashtirishga

urinib koʻrdik:

Injener -muhandis nutqidan parcha:

Yuqori qismga kanalli fankoyllar oʻrnatilgan. Panjaralar orqali esa xona ichiga yozda sovuq, qishda issiq havo bosimi yuboriladi. Bularga issiq va sovuqni beruvchi agregat esa koridorga oʻrnatilgan. Ular luk ichiga joylashtirilgan. Luk ichiga diqqat bilan qaralsa, u yerda bir qancha kanallar mavjudligini koʻrish mumkin. bu fankoyllarga bir qancha uzellar ulanadi. Bular nima uchun kerak deganda esa, xona harorati normal holatga yetganda issiq va sovuq suvni orqaga qaytarib turish xizmatini bajaradi. Shu sababli ularda yopiq, ochiq kranlar mavjud. Xuddi mana shu sistema uyimizning yozda salqin, qishda esa iliq boʻlishini ta'minlab beradi".

Shifokor - kardiolog nutqidan parcha:

"Statistik ma'lumotlarga qaraganda, har yili 7,5 mln aholi yurak kasalliklaridan vafot etadi. Yurak tananing har bir hujayrasini qon bilan ta'minlash uchun toʻgʻri ritmda ishlashi kerak. Katta yoshdagi sogʻlom odamlarda, tinch turgan holatda yurak chastotasi 60-90 zarbga teng boʻlishi kerak. Yurak urish chastotasining buzilishi "aritmiya" deyiladi. Aritmiyaning bir necha turlari bor. Yurak urishining tezlashuvi "taxikardiya", sekinlashivi esa "bradikardiya" deyiladi. Yurak urishi zarbining vaqtidan oldin urishi "ekstrasistoliya", yurak urishining toʻsatdan tezlashuvi esa "parok sizmal taxikardiya" deb nomlanadi. Nevrozlar tufayli yurak nerv apparati faoliyati buzilganda aritmiyalar bilan birga yurakda sirqillaydigan, sanchadigan, jizillaydigan ogʻriq sezgilari paydo boʻladi".

Ma'lum bir fan yoki soha yuksak darajada rivojlanganda oʻsha tilda maxsus terminalogiya vujudga keladi. Muayyan fan yoki sohaga oid birliklarni, odatda, soha mutaxassislari faol qoʻllaydilar. Biz yuqorida koʻrib oʻtgan tibbiyot sohasi va muhandislik sohasi vakillari nutqidan olingan parchalarda ajratib koʻrsatilgan oʻrinlar faqat shu soha kishilari yoxud ayni sohaga qiziquvchi insonlar lisonidagi faol iste'molda boʻlgan birliklar hisoblanadi. Biroq, boʻlak soha kishisi uchun bu birliklar, biroz tushunarsiz, izoh talab qilinadigan soʻzlardir. Chunki, ular kundalik is'temolda bunday soʻzlardan deyarli foydalanmaydilar. Sababi, ular tafakkurida bu birliklar ifodalovchi tushunchalar toʻlaqonli shakllanmagan boʻladi. Ruhiyat muammosini tadqiq etish, qahramon his-tuygʻularining butun murakkabligi, ziddiyati, koʻzga koʻrinmas sirli jihatlarini badiiy talqin etish jihatidan doimiy e'tiborni tortib kelmoqda. Keyingi yillarda psixolingvistik yoʻnalishning asosini tashkil etuvchi ong osti qatlamlarining chigal va cheksiz kengliklari, adabiy -poetik xususiyatlari, psixologik

adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichiga xos jihatlar, ijtimoiy, falsafiy, maishiy yo‘nalishlari takomili xususida amalga oshirayotgan chora-tadbirlar va muammolarni yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Til ijtimoiy hodisa bo‘lishi bilan birga, har qanday millatning tafakkuri hamda madaniyatini ham belgilab beradi. Zero, har bir inson o‘z ona tilida tafakkur qiladi, madaniyatini ham shu tilda tarqatadi. Tasavvur qilib ko‘raylik, chet elga sayohatga chiqdingiz, hashamatli restoranda mazali taomdan tanavvul qilib o‘tiribsiz. Ammo bu taomning faqatgina nomi bilan tanishsiz, xolos. Uning qanday tayyorlanishi, qanday mahsulotlar ishlatilganligi, ularning nomlari, bu taomning yaralish tarixi va shu xalq madaniy hayotidagi o‘rni haqidagi ma’lumotlar siz uchun mavhum. Tabiiyki, bu kabilarni ifodalovchi birliklar ham biz uchun noma’lum. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, lisoniy qobiliyatimizning aks etishida milliy-madaniy qadryatlar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, "**to‘y**" degan so‘z aytilganda o‘zbek xalqi tafakkurida muayyan assotsiativ maydon (**chimildiq, yor-yor, fotiha, sovchi, qalin, kelinsalom, qudachaqirdi, ko‘zgu, beshik to‘yi, sunnat to‘y**i vah.k) hosil bo‘lsa, boshqa xalqlar uchun, xususan, yapon, ingliz, habash va boshqalar tafakkurida mutlaqo boshqa assotsiativ maydon hosil bo‘lishi mumkin. Jumladan, miltiq va boshqa qurollar (**habash xalqi**); fil, gulchambar, Ganesh tangrisi, guruch, qand, kakos yong‘og‘i, "mehndi" marosimi, kumush idish, nilufar yaproqlari (**hind xalqi);** sago palmasi sharbati, qovurilgan kalamush go‘shti, kal qizlar (**bondo xalqi**); sarong (pushtirang nikoh ko‘ylagi), ibodatxona, kohin, gulchambar, oq ishton, zambil, qoziq tishlar, kokos yong‘og‘i, Tangri Ramu(**indonez xalqi**); Navro‘z bayrami, echki, gulxan, qurbonlik, buloqi (burunning chap tomoniga taqiladigan taqinchoq), salla (**kalash millati**); zarbof kimano, kumushrang zontik, parik, baxtli kunlar kalendari, guruch, baliq, quritilgan suvo‘tlari, sake, mehrob, yelpig‘ich, toko (musiqa asbobi) (**yapon xalqi**) lisoniy qobiliyatida aks etadi.

So‘zlovchi qaysi jins yoki toifa vakili bo‘lishidan qat’i nazar hamma uchun yagona bo‘lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Biroq, shuni ham ta’kidlash kerakki, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo‘lishi aniq. Shunday ekan, lisoniy imkoniyatlar muayyan so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro munosabati hamda

real muloqot vaziyati singari nolisoniy hodisalar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Shaxsning lisoniy imkoniyatdan amaliy foydalanishi esa so‘zlovchi hamda tinglovchi xususiyati, nutq maqsadi, nutq turlari, shakli va taktikasi singari qator lisoniy omillar bilan yaxlitlikda namoyon bo‘ladi[5]. Biz buni psixologlar nutqi misolida ko‘radigan bo‘lsak, ular muloqot jarayoni kim bilan, nima maqsadda, qanday vaziyatda bo‘lishiga qarab nutq shakli, taktikasi, uslubini belgilab oladilar. Buni amalda ko‘rish uchun quyidagi psixologik matnni e’tiboringizga havola etamiz.

“Ba’zi eshiklar yopiladi, sizniki bo‘lmagani uchun. Ba’zi satrlar shunchaki sahifa edi, o‘qib keyingi sahifaga o‘tishingiz uchun. Ketishni istaganlarni qo‘yib yuboring, mayli ketishsin. Chunki, ular ketishga qaror qilgan vaqtlarining o‘zidayoq ketib bo‘lishgan, aslida. Ularning yo‘qligini va ularsiz ham hayot davom etishini his qilgan qalbingiz, sekin-asta usizlikka ham ko‘nikadi. Inson, hattoki, uni dunyoga keltirgan onasining yo‘qligiga ham ko‘nika oladi. Chunki, Alloh hech qachon bandasini u bardosh bera olmaydigan dard bilan sinamaydi!”[6]

Xulosamiz shundan iborat bo‘ladiki, ushbu psixologik matnning sintaktik shakliy tuzilishi hamda matn yaralishi uchun lozim bo‘lgan nominativ birliklar qanday bo‘lishini aynan matnda ifodalanyotgan hissiyotning xarakteri belgilab bergan. Ya’ni, matn tuzuvchi shu hissiyotga mos kelgan so‘zlar, jumlalar va ohangdan foydalanishga harakat qilgan. Bu esa lisoniy qobiliyatning bir jihatini, matn tuzishda kerakli belgilarni tanlay olish qoidasinining namoyon bo‘lishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Ta’lim taraqqiyoti, 1999. – B.6-7.
2. Vohidova N. O‘zbek substansial tilshunosligi. – Toshkent, 2013. – B. 26-27.
3. Chomsky N. Syntactic Structures. – Den Haag, 1957.
4. http://library.navoiy-uni.uz
5. www.google.com
6. https://youtube.com

[5] www.google.com
[6] https://youtube.com